

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

Strengthens health. Physical activity increases the overall physical fitness of the body, improves the cardiovascular system and metabolism.

Positively affects the psyche. Outdoor recreation and exercise reduce stress and promote relaxation.

Develops physical abilities. Sports tourism develops coordination of movements, agility, flexibility and endurance.

Allows you to enjoy nature. Active recreation gives you the opportunity to enjoy the beauty of nature and be enriched with new emotions and impressions.

Fun and adrenaline

In sports tourism, special attention is paid to active recreation and the search for new adrenaline adventures. Such tourists are looking for opportunities for active physical activity, extreme sports, or simply want to test their strength. Below are some entertainment and outdoor activities that often attract sports tourists.

References:

1. Abdukhamidov, S., Makhmudova, A., & Mukhamadiev, A. (2022). Development of Tourist Routes and the Formation of Attractive Tourist Products. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(3), 129-132.

2. Sobirjanovna, D. D., & Aziza, M. (2023). The Meaning and Functions of a Literary Text as a Factor in the Development of the Aesthetic Culture of the Future Teacher of Primary Education.

3. Abdukhamidov, S., Makhmudova, A., & Mukhamadiev, A. (2022). Evaluate the multiplier effect of the development of pilgrimage tourism using Buddhist resources based on marketing research. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(3), 53-58.

4. Abdukhamidov, A. S., Makhmudova, A. P., & Mukhammadiev, N. (2022). WAYS TO DEVELOP ATTRACTIVE TOURIST ROUTES TO BUDDHIST MONUMENTS. Builders Of The Future, 2(02), 154-160.

G.Sh.Bolbekova - tadqiqochi

TURIZM SOHASIDA TA’LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING OB’EKTIV ZARURATI

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализирована объективная необходимость развития образовательных услуг в сфере туризма. В ходе исследования изучены динамичное развитие туристского рынка, изменение потребностей туристов, спрос на квалифицированные кадры на рынке труда, а также существующие проблемы в системе образования.

Ключевые слова: туристская отрасль, образовательные услуги, подготовка кадров, человеческий капитал, рынок труда, конкурентоспособность, государственная политика, дуальное образование, цифровой туризм.

Abstract: This article analyzes the objective necessity of developing educational services in the tourism sector from scientific-theoretical and practical perspectives. The study examines the rapid development of the tourism market, changes in tourist demand, the growing need for

qualified personnel in the labor market, as well as existing problems in the current education system.

Keywords: tourism sector, educational services, workforce training, human capital, labor market, competitiveness, state policy, dual education, digital tourism.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi, avvalo, ushbu sohada faoliyat yurituvchi kadrlarning kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish masalasi ob’ektiv zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi, turistik xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi hamda turistlarning talab va ehtiyojlarining sifat jihatidan o‘zgarib borishi ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari turizm sohasidagi yangi kasblar, innovatsion xizmat turlari va xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun yetarli emas.

Shu bilan birga, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish mehnat bozori bilan ta’lim tizimi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, yoshlarni ish bilan ta’minlash, xizmatlar sifatini oshirish va milliy turizm brendining xalqaro nufuzini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, amaliy bilimga yo‘naltirilgan, dual ta’lim, stajirovka va xalqaro tajribani qamrab olgan ta’lim modellarini joriy etish sohaning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu sababli, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning ob’ektiv zaruratini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi davr uchun o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirsh masalasi xorijiy va mahalliy olimlar, shuningdek xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm ta’limi sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Avvalo, xalqaro miqyosda turizm kadrlarini tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. World Tourism Organization[187] (UNWTO) tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda turizm ta’limi xizmatlarini modernizatsiya qilish, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan o‘quv dasturlarini joriy etish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlash zarurligi ta’kidlangan. UNWTO hisobotlariga ko‘ra, ta’lim sifati turistik xizmatlar raqobatbardoshligini belgilab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Turizm ta’limi va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi OECD tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. OECD[188] mutaxassislari turizm sohasida bilimli va yuqori malakali kadrlar tayyorlash xizmatlar sifatini oshirish,

[187] World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism Education and Training for Sustainable Development*. Madrid: UNWTO, 2017.

[188] OECD. *Tourism Trends and Policies*. Paris: OECD Publishing, 2020

innovatsiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar.

Ilmiy-nazariy jihatdan turizm ta’limi masalalari John Tribe[189] ishlarida chuqur tahlil qilingan. Muallif turizm ta’limini faqat kasbiy bilim berish bilan cheklab bo‘lmasligini, balki strategik fikrlash, multikulturalararo muloqot va xizmat ko‘rsatish madaniyatini shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Uning ta’lim modellari turizm sohasida zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, Chris Cooper[190] va hammualliflar tomonidan tayyorlangan ilmiy asarlarda turizm ta’limida innovatsion yondashuvlar, dual ta’lim tizimi va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish usullarining ahamiyati yoritilgan. Mualliflar turizm ta’limi bozor iqtisodiyoti talablariga moslashishi lozimligini ta’kidlaydilar.

MDH va milliy olimlar ishlarida ham mazkur masala dolzarb hisoblanadi. Xususan, o‘zbek iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimida amaliy tayyorgarlik yetishmasligi, ta’lim dasturlarining zamonaviy xalqaro standartlarga to‘liq mos emasligi kabi muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Ular turizm ta’lim xizmatlarini rivojlantirishni milliy turizmni strategik rivojlantirishning muhim yo‘nalishi sifatida baholaydilar.

Turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu holat Prezident farmon va qarorlarida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18 iyuldagi PQ–269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida turizm ta’limi tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan o‘quv dasturlarini joriy etish hamda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu qaror turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning ob’ektiv zarurat ekanini institutsional jihatdan tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur qarorga qadar turizm sohasida ta’lim xizmatlari asosan an’anaviy nazariy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan bo‘lib, amaliy ta’lim, dual o‘qitish, stajirovka va xalqaro tajriba elementlari cheklangan holda qo‘llanilgan. PQ-269 qarorining qabul qilinishi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, ta’lim xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF–5611-son “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, sohani yuqori

[189] Tribe, J. *The Economics of Recreation, Leisure and Tourism*. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2011.
[190] Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., Wanhill, S. *Tourism: Principles and Practice*. London: Pearson Education, 2018.

malakali kadrlar bilan ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Mazkur farmonda ta’lim xizmatlarining sifati turizm xizmatlari raqobatbardoshligining asosiy omili ekani alohida ta’kidlangan.

Tahlil jarayonida aniqlandiki, davlat qaror va farmonlari turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratib bermoqda. Biroq amaliyotda ta’lim muassasalari bilan turizm sub’ektlari o‘rtasida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish va raqamli kompetensiyalarni keng joriy etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish ob’ektiv iqtisodiy ehtiyoj bo‘libgina qolmay, balki davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanayotgan ustuvor yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. Bu esa sohaning barqaror rivojlanishi, xizmatlar sifatining oshishi va milliy turizmning xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish masalasi tasodifiy yoki sub’ektiv ehtiyoj emas, balki bozor munosabatlari, global raqobat, texnologik taraqqiyot va davlat siyosati ta’sirida shakllangan ob’ektiv zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turizm xizmatlari sifati, turistlar qoniqishi va sohaning barqaror rivojlanishi, avvalo, ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Shu nuqtai nazardan, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy, institutsional, texnologik va ijtimoiy omillarni tizimli ravishda tahlil qilish zarur. Quyida keltirilgan tahliliy jadval (1-jadval) mazkur omillarni kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda turizm ta’limi rivojlanishining ob’ektiv asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

1-jadval

Turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning ob’ektiv zaruratini aks ettiruvchi tahliliy jadval[191]

№	Tahlil yo‘nalishi	Mavjud holat	Muammo va cheklovlar	Ob’ektiv zaruratning mohiyati
1	Turizm bozorining rivojlanish sur’ati	Turizm sohasi jadal rivojlanmoqda, xizmat turlari kengaymoqda	Kadrlar malakasi bozor sur’atiga mos emas	Ta’lim xizmatlarini zamonaviy talablar asosida yangilash zarur
2	Ta’lim mazmuni va mehnat bozori muvofiqligi	O‘quv dasturlari asosan nazariy	Amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi	Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish ob’ektiv ehtiyoj

[191] Muallif ilmiy-tadqiqotlari asosida tayyorlangan

3	Raqobat muhiti	Xalqaro turistik bozorda raqobat kuchaymoqda	Xizmat sifati past bo‘lsa, raqobatbardoshlik yo‘qoladi	Malakali kadrlar orqali xizmat sifatini oshirish talab etiladi
4	Turistlar talablari	Turistlar sifat, servis va individual yondashuvni talab qilmoqda	Xizmat ko‘rsatish madaniyati yetarli darajada shakllanmagan	Ta’lim orqali servis madaniyatini rivojlantirish zarur
5	Raqamli transformatsiya	Raqamli turizm jadal rivojlanmoqda	Raqamli ko‘nikmalar ta’limda kam qamrab olingan	Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ob’ektiv zarurat
6	Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi	Ta’lim muassasalari va turizm sub’ektlari hamkorligi zaif	Dual ta’lim va stajirovka cheklangan	Ta’lim-amaliyot integratsiyasini kuchaytirish talab etiladi
7	Davlat siyosati	Turizm strategik tarmoq sifatida belgilangan	Kadrlar tayyorlash sifati hal qiluvchi omilga aylangan	Davlat qarorlari ta’lim xizmatlarini rivojlantirishni taqozo etadi
8	Inson kapitali rivoji	Turizmda mehnat ulushi yuqori	Kadrlar sifatining pastligi unumdorlikka ta’sir qiladi	Inson kapitaliga investitsiya qilish zarur
9	Xalqaro standartlar	Xalqaro standartlar mavjud	Milliy ta’lim ularga to‘liq mos emas	Ta’lim xizmatlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish shart
10	Prezident qarorlari (PQ–269 va boshqalar)	Ta’lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan	Amalda joriy etish bosqichi davom etmoqda	Qarorlar ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning ob’ektiv asosi

Tahliliy jadval ma’lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj bir nechta o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida shakllanmoqda. Xususan, turizm bozorining jadal o‘sishi, turistlar talablarining sifat jihatidan o‘zgarishi, raqamli texnologiyalarning keng

joriy etilishi hamda xalqaro raqobatning kuchayishi ta’lim tizimini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Shuningdek, davlat siyosati darajasida qabul qilingan qaror va farmonlar, jumladan, 2024 yil 18 iyuldagi PQ–269-son qaror turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni strategik vazifa sifatida belgilab bermoqda. Bu esa ta’lim xizmatlarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki institutsional jihatdan ham ob’ektiv zarurat ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, jadvalda aks ettirilgan tahlil natijalari turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirish sohaning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, ta’lim xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kompleks va tizimli ravishda amalga oshirish mamlakat turizm salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan tahlil va olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj tasodifiy emas, balki iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan ob’ektiv zarurat hisoblanadi. Mavjud ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi nomutanosiblik, amaliy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, raqamli kompetensiyalarning cheklanganligi hamda xalqaro standartlarga moslashish zarurati sohada tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda, xususan 2024 yil 18 iyuldagi PQ–269-son qarorda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangani mazkur masalaning davlat siyosati darajasida dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Г.Р.Турсунова–СамИСИ «Туризм» кафедраси доцент в.б.

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ИСТЕЪМОЛЧИСИНИ ТАСНИФЛАШ

Аннотация: В данной статье потребителем туристской продукции является турист и его классификация. Также описываются понятие туриста, определения, данные зарубежными специалистами, и различные подходы.

Ключевые слова: турист, посетитель, путешественник, экскурсант, Пр, П и Пд.

Abstract: In this article, the consumer of tourism products is a tourist and his classification. The concept of a tourist, definitions given by foreign experts, and various approaches are also described.

Key words: tourist, visitor, traveler, excursionist, Pr, P and Pd.

Туризм тизимининг субъекти бу-*турист*. Ушбу концепциянинг биринчи халқаро таърифи 1937-йилда Миллатлар Лигаси статистакаси бўйича экспертлар Қўмитаси томонидан қабул қилинган. Туристни қуйидаги хусусиятларга эга бўлган шахс сифатида ҳисоблаш тавсия этилган: ҳаракатланиш, маълум бир жойда вақтинча бўлиш, иш ва даромад билан алоқаси йўқлиги. Ушбу белгиларга асосланиб кейинчалик ўзига хос туристик атама ва тушунча шаклланди.

Р.С.АМРИДДИНОВА М.КАХРАМОНОВА	РАБОТА С ОТЗЫВАМИ ГОСТЕЙ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ ……....	404
А.П.МАХМУДОВА Б.Т.РАСУЛОВА	МАМАЛАКАТИМИЗДА МЕҲМОНХОНАЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ……	407
A.P.MAXMUDOVA D.A.AMIROVA	YOSHARTIRISH DAM OLISH MASKANLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI…….....	409
O.M.RO‘ZIBAYEV	HUDUDLARDA GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ULARNING AHAMIYATI….....	411
A.P.MAXMUDOVA J.YARLAYEV	ZANJIRLI MEHMONXONALARNING AFZALLIKLARI VA O‘ZIGA XOS KAMCHILIKLARI…….....……....	417
Ш.Т.АЗИМОВА	РАЗВИТИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В РАМКАХ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА: АКЦЕНТ НА РЕФОРМАХ С 2016 ГОДА……..……...…….	421
А.Ж.МИР-ДЖАФАРОВА Т.ХАЛИКОВ	ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ БИЗНЕС СТРУКТУР, УСЛОВИЯ И ТРЕБОВАНИЯ СОВМЕСТНОГО ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА……	427
А.П.МАХМУДОВА Ф.У.ФОЗИЛОВА	ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ……..	430
U.Z.RAXIMOVA	TURIZM INFRATUZILMASINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK……...…….	432
I.A.SHUKUROV	TURIZM RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKILOTLAR TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO‘LLANMALARINING TA’SIRINI TAHLIL ETISH.....	436
A.MAXMUDOVA M.XUDOYBERGANOVA	PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SPORTS TOURISM IN OUR COUNTRY…….	440
G.Sh.BOLBEKOVA	TURIZM SOHASIDA TA’LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING OB’EKTIV ZARURATI	442
Г.Р.ТУРСУНОВА	ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ИСТЕЪМОЛЧИСИНИ ТАСНИФЛАШ…….	447
А.Д.МИР-ДЖАФАРОВА Ж.РУСТАМОВ	МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД В ГОСТИНИЧНОЙ ИНДУСТРИИ……	455